


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70840109 – Asalari kasalliklari magistratura  
mutaxassisligining**

**MALAKA TALABI**

Toshkent 2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “Di” 08 dagi 244-sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlari va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r

bet

1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	8
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	8
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	9
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	10

## Umumiy tavsifi

70840109 - Asalari kasalliklari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70840109 - Asalari kasalliklari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talablari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkredatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilarini va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

"Veterinariya" sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, asalarilarning parazitar, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarining sabablarini aniqlash, tashxisi, davolash va oldini olish chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, loyihalash va tashkil etish, asalari oilasiga veterinariya xizmati ko'rsatishni tashkillashtirish va amaliyotga joriy etish, asalarilarga veterinariya xizmati ko'rsatishni tashkillashtirish vositalari, usullari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

#### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlanтирish qo'mitasi va uning tasarrufidagi barcha veterinariya ob'yektlari;

asalarichilik xo'jaliklari;

davlat va nodavlat, shaxsiy veterinariya tashkilotlari;

fermer, shirkat va shaxsiy xo'jaliklari uchun asalarichilik xo'jaliklari;

har-xil dori-darmonlar va davolash vositalari;  
har-xil oziqa aralashmalari, vitaminli hamda to‘qima preparatlari;  
veterinariya davolash asbob-uskunaları;  
veterinariya diagnostik apparaturalari va har xil reaktivlar;  
asalarichilik ilmiy-tadqiqot tashkilotlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *tadbirkorlik;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70840109 - Asalari kasalliklari mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarinmng sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy faoliyatni tashkil qilish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni amaliyotga tavsiya etish;

ilmiy maqolalar, tezislar va risolalar tayyorlashda ishtirok etish va tayyorlash, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mayzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar va konferensiyalarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Pedagogik faoliyatda:**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

ma’ruzalar, uslubiy qo‘llanmalar va o‘quv adabiyotlarini tayyorlash hamda tahrir qilishda ishtrok etish;

o‘quv jarayonini tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalaniib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

korxonalar tashkiliy-boshqaruva faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtiroy etish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish;

ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruva qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatda:**

veterinariya korxonalari faoliyatini rejalashtirishda ishtiroy etish;

asalarichilik xo'jaliklarida, shirkat, fermer xo'jaliklari va fermalarida veterinariya faoliyatini rejalashtirishda ishtiroy etish;

asalarilarning infekzion, invazion va yuqumsiz kasalliklariga tashxis qo'yishni ilmiy asosda tashkil etish va davolash ishlari bo'yicha zamonaviy veterinariya xizmatini ko'rsatish;

asalarilarning infekzion, invazion va yuqumsiz kasalliklariga tashxis qo'yish va davolashda ishlatiladigan asbob uskunalar, reaktivlar, davolash vositalari va preparatlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish;

asalarilarning infekzion, invazion va yuqumsiz kasalliklarini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

veterinariya xizmatini ko'rsatish uchun yangi va ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

veterinariyada qo'llaniladigan yangi dori vositalari va usullarini amaliyotga tadbiq etish;

asalarichilikda qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini o'rganish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilishda ishtiroy etish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me’yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va xulosalami mantiqiy, to‘g‘ri, asosli ya aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

o‘qitishning ilg‘or, zamonaviy texnologiyasini bilish va undan kasb faoliyatida zamonaviy ilmiy asosda foydalana olish;

pedagogik faoliyatda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni hamda veterinariyaga oid fanlarni o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalarini bilish;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallashi, o‘z ustida ishlashi va mehnati faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

raqamlashtirish jarayonida me’oriy hujjatlardan foydalana olish, sohani raqamlashtirish sharoitida ma’lumotlarni qayta ishlashning asosiy usullari va vositalarini o‘zlashtirish, intellektual boshqaruv tizimlarida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

bulutli texnologiyalardan foydalana olish, buyumlar internet texnologiyasining mohiyati va ahamiyatini tushunish, telemeditsina, telekonferensiya va videoaloqa bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, raqamlashtirish sharoitida axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

veterinariya sohasiga oid ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qila olish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkillashtirishda ishtirok etish;

ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini rasmiylashtirish va joriy qilish, tadqiqot olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondoshishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

o‘z faoliyatida me’oriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

veterinariya tashkilotlarida va asalarichilik xo‘jaliklarida boshqarish jarayonlarini rejalashtirish va uni boshqarish;

asalarichilik mahsulotlarini sifatini yaxshilash, eksportbop salohiyatini oshirish,

xujalik sanitariya nazorati, asalarilar kasalliklarini bartaraf etish;

veterinariya va asalarichilik sohalarida qo'llaniladigan dastlabki hujjatlar va yo'riqnomalar hamda tavsiyalarni ishlab chiqish;

veterinariya va asalarichilik sohalariga oid zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Amaliyot ilmiy pedagogik ish va ilmiy tajriba orttirish bo'yicha tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetemsiyalar va amalakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-pedagogik ish;

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		<b>MAJBURIY FANLAR</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
1.01	SRT1104	Sohada raqamli texnologiyalar	120	4	1
1.02	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.03	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.04	AIA1108	Asalarichilikning ilmiy asoslari	240	4	1,2
1.05	AIIK1108	Asalarilarning infekzion va invazion kasalliklari	240	6	1,2
1.06	AYK1206	Asalarilarning yuqumsiz kasalliklari	180	6	2
1.07	AXVST1206	Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari	180	6	2
1.08	AB1306	Asalarilar biologiyasi	180	6	3
2.00		<b>TANLOV FANLARI</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	
		<i>Tanlov fanlar (3 ta fan)</i>	420	14	1,2,3
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
Kvalifikatsiyasi					
Veterinar, pedagog-tadqiqotchi					
3.00		<b>ILMIY FAOLIYAT</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02		Ilmiy-pedagogik ish	540	18	1,2,3,4
3.03		Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	180	6	4
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), apipatologiya, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, veterinariya ta'lim sohasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari, hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, asalarilar, asalari oilasi, ona asalari, asalari lichinkasi, asalari mahsulotlari, asalarichilik xo'jaliklari, asalarilarning yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklari, epizootiya, patogenez, immunitet, araxnologiya, entomologiya, protozoologiya, veterinariya sanitariyasi, davolashda ishlatiladigan asbob uskunalar, reaktivlar, davolash vositalari, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar  
iste'molchilar

**ISHLAB CHIQILDI:**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Rektor  X.B. Yunusov

2024-yil " " .

M.O.



**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

M.O.



Toshkent davlat agrar  
universiteti




Birinchi prestruktor  S.Y. Islomov

2024-yil " " .

M.O.

Veterinariya dori vositalari va ozuqabop  
qo'shimchalar sifati va muomalasi bo'yicha  
davlat ilmiy markazi

 S.S. Oqqiyev

2024-yil " " .




O'zbekiston Respublikasi  
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish  
no'mitasi

Rajis  B.T. Norqobilov

2024-yil " " .

M.O.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot  
instituti

Direktor  R.A. Elmurodov

2024-yil " " .

M.O.



"JIZZAX ORGANIC" MCHJ XK

direktori  A.A. Kaziyev

2024-yil " " .

M.O.